

## Assertiv xulq shakllanishining o'ziga xosligi

Dilafruz Dadamirzayevna Oribboyeva  
Shaxnoza Baxtiyor qizi G'aniyeva  
Namangan davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yolg'iz farzandlar xulqida qat'iyatsizlik, qaramlik kabi sifatlar ustunlik qiladi deya ta'riflanadi. Bunga sabab esa ota-onaning doimiy bolaga haddan tashqari g'amxo'rliqi, uni doimiy mummolarini yechib berishga intilishi tufayli paydo bo'ladi. Oiladagi farzandlarda tug'ilish ketma ketligiga ko'ra xulq avtorda qattiyatni shakllanishi masalasigi Alfred Adlerning ham qarashlarini taxlil qildik.

**Kalit so'zlar:** faoliyat, faollik, assertiv xulqi, tirishqoqlik, shaxs psixologiyasi, qobilyat, qat'iyatsizlik, xulq-atvor

## The uniqueness of the formation of assertive behavior

Dilafruz Dadamirzayevna Oribboyeva  
Shakhnoza Bakhtiyor kizi Ganiyeva  
Namangan State Pedagogical Institute

**Annotation:** In this article, it is described that qualities such as indecisiveness and dependence prevail in the behavior of only children. The reason for this is due to parents' constant excessive care for the child, their desire to remove his permanent problems. We also analyzed the views of Alfred Adler on the issue of the formation of character determination in children in the family according to the order of birth.

**Keywords:** activity, activity, assertive behavior, diligence, personality psychology, ability, indecisiveness, behavior

Assertiv xulq, shaxsni muvaffaqiyatli tarzda faoliyat ko'rsata olishini ta'minlash uchun kerakli bo'lgan shaxsning muxim sifatlaridan biri hisoblanib, insonning barcha faoliyati tizimida katta o'rin egallaydi. Shaxsdagi muvaffaqiyat maqsadga yo'naltirilganlik, faollik, ishonchlilik, ochiqlilik, tashabbuskorlik, g'ayratlilik kabi sifatlar bilan bog'liq bo'lsada, assertiv xulqli shaxs, o'ziga ishonchni, tirishqoqlik va sabotlilikni mujassamlab, tasdiqlovchi xulq namunasini ifodalaydi. Assertiv xulq, psixologiya fanida shaxs sifati ko'rinishida muhokama etilib, individual faollikni integral tavsifining ko'rsatkichi tarzida talqin etiladi.

Assertiv xulq (inglizcha assertiveness inglizchadan assert - tasdiqlamoq, himoya qilmoq, lotincha assertus, lotincha asserere - tasdiqlamoq) degan ma'noni bildiradi hamda amerikalik psixoterapevt Manuyel J. Smitning (1934-2007) fikricha - odamning tashqi ta'sirlarga qaram bo'lmaslik qobiliyati va baholash, o'z xatti-harakatlarini mustaqil ravishda tartibga solish va buning uchun javobgarlik hissini tuyu bilish deb ataladi.

Kichik yoshdagi bolalarda assertiv xulqni shakllanishini bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, psixologiya yo'naliishlari turli namoyondalari psixoanalitiklar (A. Adler, M.J. Smit, A. Salter, S. Freyd, E. ham assertiv xulqning shakllanishi masalasiga ahamiyat qaratish lozimligini ta'kidlaydi.

Jumladan yolg'iz farzandlar xulqida qat'iyatsizlik, qaramlik kabi sifatlar ustunlik qiladi deya ta'riflanadi. Bunga sabab esa ota-onaning doimiy bolaga haddan tashqari g'amxo'rliги, uni doimiy mummolarini yechib berishga intilishi tufayli paydo bo'ladi. Oiladagi farzandlarda tug'ilish ketma ketligiga ko'ra xulq avtorda qattiyatni shakllanishi masalasigi Alfred Adlerning ham qarashlaridan bilish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilib, xulq-atvorning shakllanishida qulay ijtimoiy muhitning ham qo'llab quvvatlovchi mehanizm ekanligiga urgu qaratish lozim. Assertiv so'zi asosan «ishonch holda tasdiqlash» degan ma'noni bildiradi. Lekin bu psixologiyada ko'p ma'noda ishlatiladi.

Psixologiya fanlari doktori, hissiy intellekt bo'yicha ekspert Viktoriya Shimanskayaning fikricha, shaxsdagi qat'iyatlilik sifatlari uning shaxsiy tanlovida, hamkasblari bilan bo'lgan munosabatlarida, muyayyan bir pozisiyani egallash yoki qanday qaror qabul qilish va qilmaslik kerak bo'lgan har bir daqiqada namoyon bo'ladi.

Shaxsdagi qat'iyatlilikning o'ziga xos xulq-atvor uslubi quyidagilarni anglatadi:

- Bunday inson doimo nimani xohlayotganini va nimani his qilayotganini aniq biladi;

- Qaror qabul qila oladi, o'z xulq atvorini boshqalar his tuyg'ulariga ta'sir qilishini bashoratlay oladi;

Odatda ko'p odamlar o'z ehtiyojlari haqida gapirmaydilar, muammolarni yashiradilar va munosabatlarni aniqlashtirishdan qochadilar yoki ular haqida to'g'ri gapirishni bilmasliklari uchun ham ba'zan agressiv bo'lib qolishadi.

Mayo Clinic ma'lumotlariga ko'ra, insondagi qat'iyatlilik o'ziga ishonchni oshirishga yordam beradi. Natijeada inson kim ekanligini va boshqalar uchun qanday qiymatga ega ekanligini anglaydi. Boshqa odamlar bilan muammolarni muhokama qilish orqali o'zining stress darajasini nazorat qila oladi hamda o'z his-tuyg'ularini aniq ifoda eta oladi. Kolumbiya biznes maktabining professori Daniyel Ames fikricha, agar menejer haddan tashqari passiv muloqot uslubiga ega bo'lsa, u o'z

maqsadiga erisha olmaydi, agar u haddan tashqari tajovuzkor bo'lsa, u boshqalar bilan til topisha olmaydi.

Ishonchli qa qatiyatli ishchilar o'z raqibining pozisiyasini va qiymatini tan olishlari mumkin, shuning uchun ular tezda u bilan umumiyligini topishib ketadilar. Bu odamlar o'zlari duch keladigan muammolarga yaxshi echim topish uchun hamma narsani bajara olishdek kuchga ega. Ular odatda kamroq tashvishlanadilar, o'zlarining kuchlariga va imkoniyatlariga ishonadilar va noqulay vaziyatda ham o'zlarini yo'qotib qo'yaydilar.

Insondagi qat'iyatning shakllanishiga ishonchli xatti-harakatlar yordam beradi, jumladan:

- o'ziga ishonch va o'zini hurmat qilish;
- his-tuyg'ularini tushunish;
- boshqalarning hurmatini qozonish;
- muloqotchanlik;
- to'g'ri qarorlar qabul qilish;

Inson o'zidagi qat'iyatni qanday rivojlantirishi mumkin?

Kun davomida qilgan barcha ishlarni, shu jumladan 15 daqiqadan ko'proq vaqt sarflagan vazifalaringizni yozib oling. Kechqurun, tuzilgan rejani qayta o'qing va har bir nuqta uchun o'zingizga javob bering:

Men buni qilishni xohladimmi? Men buni o'zim qilayotganimni payqadimmi? Men elektron pochtamni tekshirmoqchi bo'ldim va yarim soat davomida ijtimoiy tarmoqlarda kimdir bilan janjallashib qolganimni sezmadim.

Men haqiqatan ham o'ylaganimni aytdimmi? Men bu kitobni aslida yoqtirmayman, lekin negadir uni hamma qatori maqtadim.

Men to'g'ri deb o'ylagan narsani qildimmi? Men baqirdim, kimnidir xafa qildim  
- o'z vaqtida to'xtamadim.

Mashqni ikki hafta davomida takrorlang: ikkinchi haftaning oxiriga kelib, sizning xatti-harakatlaringizning sezilarli darajada mazmunli, ishonchli misollari paydo bo'ladi.

Shunday mashqni takrorlash orqali inson o'zida ishonchli xulqni tarbiyalash bilan birgalikda o'zining xulq-avtorini nazorat qiish, tuzgan rejelarini amalga oshirish uchun qat'iyat bilan kirisha olish kabi sifatlarni o'zida shakllantirib boradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Абдумаджидова Д.Р., Педагогик фаолият тизимида мактаб ўқувчиларида асертив хулкни шакллантиришнинг психологик хусусиятлари. замонавий таълим / современное образование 2017, 3

2. Алексеева Л. Ф., Лебедева И. В. Ассертивность как основное свойство субъекта в психологии // Вестник практической психологии образования. 2009. № 1 (18). - С. 39-42.
3. Оллпорт Г. Личность в психологии. - Москва: Ювента, 1998. – 345
4. Шамиева В.А.Ассертивность в структуре личности субъекта адаптации // Автореф.дис....канд. психол. наук: – Хабаровск: Университет,2009.–20с.
5. Ульрих Р.Р. Уверенность в себе / Рита и Роджер Ульрих Электронный
6. Askarova, M. (2019). Development of reading and text comprehension skills in primary school students. In Scientific researches for development future (pp. 91-93).
7. Камолова Азимахон Одилжон қизи. (2024). ИСЛОМ ДИНИ ТАЪЛИМОТИДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МАСАЛАЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТДАГИ АМАЛИ АХАМИЯТИ. Results of national scientific research international journal, 3(1), 201–207. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10581873>
8. Камалова, А. (2021). THE IMPORTANCE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF EDUCATION. Экономика и социум, (3-2), 12-14.
9. қизи Ахмедова, Д. С., & қизи Камолова, А. О. (2022). ЎСМИРЛАРДА МЕЪЁРДАН ХУЛҚИЙ ОФИШ ХОЛАТЛАРИНИ КОРРЕКЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА ХУҚУҚИЙ САВОДХОНЛИКНИНГ АХАМИЯТИ. Евразийский журнал академических исследований, 2(3), 413-416.
10. Ориббоева, Д. Д. (2022). O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISHDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI TA'SIRI: <https://doi.org/10.53885/edinres. 2022.8. 08.045> Oribboeva Dilafro'z Dadamirzayevna NamDU Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (8), 314-318.
11. Oribboeva, D. D. (2019). STUDY OF SOCIAL COMPETENCE IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(4), 288-292.
12. Ikromaliyevna, K. N., Muhammedovich, B. M., & Dadamirzayevna, O. D. (2019). Eastern thinkers about the phenomena of self-awareness. Journal of Critical Reviews, 7(2), 2020.
13. Ориббоева, Д. Д. (2019). THE INFLUENCE OF SOCIAL COMPETENS ON PROFESSIONAL CHOICE. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(9), 256-261.
14. Oribboeva, D. D., & Ikromova, D. (2024). Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasining o'ziga xosligi, aqli zaiflik turlari. Science and Education, 5(1), 287-291.

15. Oribboyeva, D. D. (2020). SOCIAL COMPETENCE AS AN INTEGRAL PART OF THE TEACHER'S PROFESSIONAL MATURITY. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(11), 347-353.
16. Azimova, O. A. Q. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarida kasbiy mahorati. Science and Education, 4(6), 718-722.